

Nazar aka, ijodningiz borasida adabiyotshunoslarning G'arb adabiyotining ta'siri sezilib turadi degan fikrlarini ko'p eshitganman... O'sha adabiyotshunoslardan ancha sichkov bo'lishsa kerak. Bunday fazilatga havas qilsa arziydi. Shaxsan men asar o'qiyotganda bu g'arbniki, bu sharqniki degan fikr xayolimga kelmaydi. Shuning uchun savolningizga o'sha adabiyotshunoslarning o'zлari javob beriganlari ma'qul. Biron narsa yozayotganda yozuvchi bir sharqcha yo g'arbcha qilib qoyillatib tashlay deb o'ylamaydi. Ko'ngliga kelganni, o'zini to'lqinlartirganni yozadi. Uni turli shaklga solish mumkin. Ya'nini o'z dardini to'kish uchun turli vositalar izlashi mumkin. Men shaxsan bunaqa vositalarni ko'proq o'z ertak, dostonlarimizdan olaman. Hozir asar sal boshqacharoq yozilsa bo'ldi bu g'arbcha adabiyotga taqlid deb baho beradiganlar ham bor. Bunaqa baho berishlarda menga ko'proq "mana, ko'rayapsilarmi, men g'arb adabiyotidan ham xabardorman" degan iddao borday tuyuladi. Agar sal boshqacha ifoda, boshqacha yondashuv uchrasa yoki ko'nikmadan chiqilgan shakl topilsa, bu g'arb deganimas, oldin o'zimizni bir tekshirib ko'raylik. Yana o'sha ertagu dostonlarga bir qarab ko'raylik. G'arbcha ta'sirlarni "fosh" qilishga vaqtimiz yetadi. Qolaversa, biz ham G'arbdagi intellektual salohiyatlari odamlardan qolishmaydigan, ular bilan bir davrda yashab, ular foydalanayotgan vositalardan foydalanib, ular kabi fikrlay va o'lay boshtaganimizga ancha bo'ldi. Bir davrda yashab, bir zaminning havosini olyotgan insonlarmiz. Bir-birimizga o'xshab o'ylashiiz, iztirob chekishimiz, sevishimiz tabiiy. Lekin muhimmi bu emas. Muhimi nima deb baho berishsa ham asarning o'qilayotgani. Yozuvchining yutug'i shu. Biron adabiyotning ta'sirini sezishi uchun ham o'qish kerak. Hozirgi paytda ta'sir izlab bo'lsa ham o'qib turishganiga shukur qilish lozim.

O'zbek adabiyotining zabardast vakillari Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzaev o'zbek hikoyachiligidagi o'ziga xos maktab yaratganlar. Ulardan keyingi avlod vakillari ijodiy ishlardan yutuqlar qo'lga kiritilganmi? Kuzatganmisiz?

O'zbek hikoyachiligidagi maktab yaratish yo ma'lum bir o'rinn qoldirish uchun yuzlab hikoya yozish shartmas. Bitta hikoya bilan adabiyotda o'ringa ega bo'lish mumkin. Men Shukur Xolmirzaevning, Abdulla Qahhorning hikoyachilik maktabiga daxil qilmagan holda aytmoqchimanki, ulardan keyingi avlod vakillarida ham hikoya maktabi bor. Endi bu adiblar kammahsul bo'lgani uchun ham maktab yaratmagandek tuyulishi mumkin. Adabiyotda bitta hikoyaning o'zi bilan maktab yaratgan yozuvchilar bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. "Dashtu dalalarda" hikoyasining o'ziyoq Murod Muhammad Do'stni o'zbek hikoyachiligidagi o'ziga xos yo'nalishdagi, o'ziga xos maktabdagi asar yaratgan, yangi shakl, ohang, ruh olib kirgan adib sifatida tan olishga to'liq asos beradi. Hozirgi (keyingi uch-to'rt yili ichidagi) o'zbek adabiy jarayonida hikoyachilik qay holatda?

Hozirgi (uch-to'rt yilgi) o'zbek hikoyachiligi bormikin? Keyingi paytlarda chin ma'nodagi hikoya deyilishga arzulik biror asar o'qiganim yo'q. Balki, bu mening aynimdir? O'qimay qo'yanman desam, xato bo'ladi. Chop etilayotgan hikoyalarni ilinj bilan o'qishga harakat qilaman. Ammo yarmiga yetganda hafsalam pir bo'ladi. Bu hikoya emas. Cho'pchak. Hozir cho'pchaklar davri. Kim qotirib cho'pchak yozsa, o'shaning xaridori ko'p. Hikoya sotilmaydi. Cho'pchakni esa sotish, gazeta tirajini oshirish mumkin. Shuning uchun ikki yildan beri Sh.Xolmirzaev hikoyalarni qayta-qayta o'qiyapman. Bu adibning so'nggi hikoyalari o'zbek adabiyotida o'ziga xos bir yo'nalish, voqeа sifatida hali o'z bahosini oglani yo'q. Shukur aka ichida quyun bor yozuvchilar edi. Garchi ba'zi hikoyalarning boshi yo oxirini ortiqcha va keraksiz deb bilsam-da, har bir hikoyada adib ichidagi quyunni ko'ruman. Aslida, iste'dod degani ichidagi quyunni so'z bilan ko'rsatib berish bo'lsa kerak. Shukur aka ba'zi bir hikoyalarda quyunni bo'ronga aylantirolgan. Hozircha (keyingi uch-to'rt yillik) hikoyachilikda Shukur aka yoxud Xurshid Do'stmuhammadning ancha oldin yozilgan hikoyalardan tashqari siz aytmoqchi voqeа bo'ladi hikoyalarni o'qiyolganim yo'q.

Nazar aka, adabiyot... badiiy adabiyot san'atning bir turi sifatida e'tirof etiladi. Biroq san'at asarlarini iste'dodli ijodkorlar yaratadilar. Tarix tan olgan iste'dodlar ko'p: Sofokl, Shekspir, Navoiy, Tagor... Bu kabi san'at namoyandalari kamdan-kam tug'iladi. O'tgan asrda yashab o'tgan qaysi adiblarni mana shu daholar safiga qo'shgan bo'lardingiz?

Siz keltirgan daholar adabiyotning juda katta "tog"lari. Bu "tog"lar oldida "qirlar" bo'lishi tabib. XX asrda yashab ijod etgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamid Olimjon, Oybek va boshqa "qir"lar o'sha "tog"larga borib birlashadi. Ayniqsa, 6070- yillarda adabiyotga kirib kelgan juda ko'p shoir-nosirlar ham mahorat, ham adabiyot chegaralarini kengaytirgan adiblar sifatida "tog"lar yonida "qir"lar bo'lib turadi. Ularni sanasak, juda ko'p. O'sha "qir"lar bo'lmasa, "tog"ning salobati bilinmay qoladi. Tasavvur qiling, sahro o'rtasida balanda tog' qoyasi qo'qqayib tursa, qulab tushishi mumkin. XX asrda Navoiy atrofida, mazkur "qir"larimiz, "qoya"larimiz ko'paydi. Masalan, ham qissa, ham hikoyada tarixiy janrni boshlab bergan Mirkarim Osim, o'ziga xos eksperimental ijod qilgan (ham nasrda, ham she'iyatda), Asqad Muxtor va boshqalar bu adabiy chegaralarni kengaytirganlar.

Siz milliy adabiyotimiz ustida to'xtaldingiz. Men dunyo miqyosidagi adabiyot, katta doiradagi adiblarni nazarda tutgandim...

Men milliy yo jahon adabiyoti deb farqlamayman, asar adabiy nuqtai nazardan zavq berolsa, bo'ldi. Sizning yuqorida keltirgan ro'yxatingizga adabiyotga qo'shgan hissasi, asarlari odamga bergen zavq nuqtai nazardan ko'p adiblarni kiritish mumkin. XX asrda ham tabbiy ravishda "qir"lar ro'yxatiga kirishi mumkin bo'lganlar ko'p: adabiyotni o'rgangan sayin chuqur o'rgatadigan Kortasar, Robert Myuzel, xarakter va tipik nasriy timsol yaratib bergen Kafka, yaponlardan Kababata, Kobo Abe, Ryunesko Akutagava, Tanidzaki Dzyunitiro, Lotin Amerikasidan Borxes, Markes, Sabota, Korpenterni. Ha, Onettini. U stilist (Bu yozuvchini juda qadrlayman). Yana Xeminguey, Tomas Vulf, Folkner, bu adiblar bir Amerikaning o'zidan chiqyapti. Yevropaning o'zidan qancha. Sartr, Marsel Prust, Kamyu... Rus adabiyotida Pasternak, Bunin, Bulgakov, Sholoxov.

Bu adiblarni o'qib zavq olasiz, adabiyotning sof, chinakam vazifasini teran anglaysiz, hayotni, jamiyatni, o'zingizni o'rganasiz. Bular bir ilm. Mazkur ilmni o'rgangan sayin ko'nglingiz yuksalib boradi, aqlingiz teranlashadi, insonning mohiyati va vazifasini ko'proq anglaysiz.

G'arb adabiyotshunoslari e'tiroficha, Yevropa adabiyotini uch ustun ko'tarib turarkan: Kafka, Jeyms Joys, Marsel Prust. Bu ta'rifga munosabatingiz....

Bu uch buyuk yozuvchilarning G'arb adabiyotida tabiiy ravishda o'rni bor. Buni hech kim inkor etolmaydi. Biroq Yevropa adabiyotini bu uch yozuvchi bilan cheklab qo'yish noto'g'ri. Agar Kafka ustunroq bo'lsa, Kamyu qaerga ketadi, Sartr-chi? Kafkada inson fojiasi, inson haqidagi ixtiolar ko'proq. Kamyuda esa shu iztirobni anglash, uni tahlil etish kuchli. Prust yaxshi. Ammo Sartr lo'ndaroq va faylasufroq. Bu adiblarni bir-biridan ajratib, bunisi past, unisi baland deyishning o'zi noto'g'ri. Myuzelni olsak... uning ijodida ozod odamning qiyofasizlikka aylangan qiyofasi ochib tashlangan. XX asrda quzdorlik yo'qoldi, biroq jamiyatda har tomonlama qul qilingan, insoniylik qiyofasini yo'qotgan odamlar ko'z oldingizda gavdalanadi. Qiyofasiz odam, ozod bo'lgani bilan, baribir ma'nан quldir. "Qiyofasiz odam" asari XX asrning ma'naviy tarixi, undan ham voz kechib, o'rnini pasaytirib bo'lmaydi.

G'arb adabiyotidagi oqimlarda ijod qilgan adiblarga ayrim tanqidchilarimiz taqlidchilik, "G'arb adabiyoti soyasida qolgan" kabi ayblarni taqashadi. Bunga siz qanday munosabat bildirasiz?

Shunaqa ayb bilan chiqayotganlar na milliy adabiyotni yaxshi bilishadi, na g'arb adabiyotini. Yana aytaman, biron narsa haida fikr

This is not registered version of TotalDocConverter

bildisken o'qish uchun qurilgan qilib emas, yonligizdagi loysuvoq uyga qarab oling. Keyin minorlarga taqlidda ayblayverasiz. Ya'ni an'analarini o'rganish kerak. Qaysi an'ana g'arbcha, qaysi an'ana sharqcha, ajratish kerak. Umuman, shu asar zamirida iste'dod bormi? Agar iste'dod bo'lsa, uni hech qachon taqlidchilikda ayblab bo'lmaydi. Dunyoning rivojlanishi adabiyotlarning bir-biriga ta'sirisiz kechmaydi. Bir paytlar G'arbing o'zi Sharqdan juda ko'p ta'sirlanib, ko'p narsalarni o'zlashtirgan. Misol uchun, Lotin Amerikasi. Ham Sharq, ham G'arb, ham yapon an'analarini singdirib olgan. Adabiyotlarni bir-biridan uzib olib rivojlanтирish imkonsiz.

Modern, ong oqimi, absurd va shu kabi talay adabiy oqimlar G'arbda paydo bo'lgan. Adabiyot uchun belgilangan yuksak mukofot Nobelni ham aksariyat g'arblik adiblar olishadi. Milliy adabiyotimiz posangisi g'arbnikidan shu qadar yengilmi yo bizda tarjima yo'lga qo'yilmaganmi? Yo boshqa sabablari bormi? Nima deb o'ylaysiz?

Bu yerda hamma aytganlaringiz to'g'ri. Zamonaviy adabiyotimizning posangisi ham yengil, iste'dod nuqtai nazaridan ham oqsaydi. Shu bilan birga ba'zi Nobel mukofoti olgan adiblarga muqoyasa qiladigan bo'lsak, bizda ham shu darajadagi adiblar bor. Nobel mukofoti hamisha adolatli bo'lgan emas. Nobelchilarining o'ziga xos o'yinlari, talablari, fikrlari bor. Agar urxun Pomuk darajasidagi adiblarga mukofot berish kerak bo'lsa, unda talabgorlar topsa bo'ladi. Deylik, Aytmatovg'a ham berishi mumkin. Shu bilan birga, tarjima tajribalarimiz ham deyarli yo'q. Dunyoni o'ziga jalb qilgan asarlarimiz kam. Nobel mukofoti taftish qilinsa, shundan 30% adiblar mazkur mukofotga arziyidigan adiblar bo'lib qoladi.

Modern, absurd, ong oqimi bu yo'nalish, oqimlarni adabiyotshunoslar o'ylab topishgan. Yozuvchilar qanday o'ylasa, shunday yozadilar. Boshqasi qiziqtirmaydi. Meni ham qiziqtirmaydi.

Nazar aka, yana ijodingizga qaytsak, aksariyat asarlarining mung, qayg'u bilan sug'orilgan. Personajlaringiz alamzada, hayotga nafrat bilan boqishadi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi rassom chol aynan shunday tipdagi qahramon. Unda umid batamom so'ngan, ertangi kunga ishonchi yo'q. Axir, odam kurashishda davom etsagina niyatiga erishmaydimi?

Yo'q, fikringizga qo'shilmayman. Qahramonlar alamzadamas. Ular o'z hayotlarining behuda o'tganini, umrlari davomida ishonib kelgan e'tiqodlari singanini, ular sig'ingan ma'budlar qulaganini anglab qolgan, o'zlarinin o'zları tahlil va so'roq qilayotgan, boshqacha aytganda, hayotlarini boshqatdan boshlash uchun o'zlaridan kuch izlayotgan odamlar. Odam o'zini tahlili qilyaptimi, demak, u hayotinini yangidan boshlamoqchi. Hikoyalarimda shu umid va shunga ishora bor. "Maymun yetaklagan odam"dagi cholga nisbatan bu iborani qo'llab bo'lmaydi. Bu yerda cholning nafrat bilan yashashi muhimmas. Muhami chol o'z e'tiqodining puchligini anglagani va bu tuyg'uni o'quvchiga ham yuqtirolgani. Menga cholning hayotidan kelib chiqadigan saboq tufayli o'quvchida tug'iladigan taassurot muhim. Adabiyot inson haqida, insonning dunyosi va qalbi haqidagi fan. Shundan oladigan saboq. Asar odam haqida, ko'ngil haqida ta'lif beryaptimi shu saboqning o'zi yetib ortadi. O'z hikoyalarimni judayam qorong'u deb aytolmayman. To'g'ri, boshqalarga nisbatan g'urbat, iztirob, odamga achinish nuqtai nazaridan, siz aytganday, mungli bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin har qanday mungdan chiqqan saboq odamlarga achinish, odam haqida qayg'urish, hayot haqida o'quvchining ma'lum bir xulosaga kelishi-shularning o'zi men uchun yorug'luk. Hikoyadan so'ng o'quvchi ko'nglida tug'iladigan tuyg'u men uchun yorug'luk. Saboq yorug'luk.

"Lahad" degan roman yozgan ekansiz? Uni nega haligacha e'lon qilmadingiz?

Bu romanning asosiy qismi 90-yillar boshida yozilgan. Romandan qulash arafasiga kelib qolgan, insonning botiniy quvvatini so'rish evaziga yashab kelgan tuzumning badbo'y hidlari anqib turibdi. Men o'tgan yillar davomida asarni faqat tahrir qilish bilan shug'ullandim, xolos. Necha bor urinmay, uni qayta yozish, voqelikni boshqa izga solish, hatto nomini o'zgartirishga ham baribir kuchim yetmadi. O'tgan yillar ichida alohida asar sifatida o'zini oqlamaydi degan shuhbada bu mashqning ichidagi ba'zi boblarini mustaqil hikoya sifatida e'lon ham qildim. Uzoq ikkilanishlardan so'ng uni qay tarzda yaratilgan bo'lsa, o'sha holatda qolgani ma'qul degan xulosaga keldim. O'zining mavjudligini isbot qilib berolmagan, odamzotni xo'rash va haqoratlash evaziga qurilgan mustabid tuzumdan chiqariladigan kichik bir saboq bo'lib qolishi uchungina uni yaqinda e'lon qilishga ham qaror qildim. Chop etilbi qoladi.

Hozirda qanday ish bilan mashg'ulsiz? Ijodingizda nima yangiliklar?

Ikkita hikoya, bitta qissa boshlaganman. Bitta roman ustida ishlayapman. "Izsiz" deb nomlanadi. U qanday tugallanishini bilmayman. Yozilyapti.

Muxlislarining tilaklariningiz...

Ko'proq o'qishsin. O'qigan odam hech qachon yomon odam bo'lmaydi. Ko'nglida, baribir yaxshilik qoladi. O'sha yaxshilik urug' bo'ladi. Urug' o'sib, ertaga meva beradi. Inson uchun gazetami, jurnalmi, kitobmi, "Bekajon"mi, o'qishga arzigulik asar bo'lsa, ko'nglida nimadir uyg'onadi. Yorug'lukka chorlaydi. Mutolaa odamni ezgulikka boshlaydi.

Umid Ali suhbatlashdi